



YOSHLAR EKSTREMIZMINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: TAHLIL VA YECHIMLAR

Husanboev Sardor Abdukarimovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'layotgan asosiy ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillar tahlil etilgan. Shuningdek, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashishda milliy g'oya, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va davlat siyosatida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar roliga baho berilgan. Muallif tomonidan mafkuraviy tahdidlar, g'oyaviy bo'shliq va tashqi ta'sirlarning yoshlar ongiga salbiy ta'sir etish xavflarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: ekstremizm, radikalizm, mafkuraviy tahdid, yoshlar, mafkuraviy bo'shliq, ma'naviy tarbiya, milliy g'oya, davlat siyosati

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ МОЛОДЕЖНОГО ЭКСТРЕМИЗМА: АНАЛИЗ И ПУТИ РЕШЕНИЯ

Хусанбоев Сардор Абдукаримович

соискатель Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация:

В статье анализируются основные социальные, политические и духовные факторы, способствующие распространению экстремистских идей среди молодежи. Автор оценивает роль национальной идеологии, нравственно-воспитательного воспитания и государственной политики в противодействии экстремизму и радикализму. Особое внимание уделяется идеологическим угрозам, влиянию идеологического вакуума и внешнего воздействия на мировоззрение молодежи.



Ключевые слова: экстремизм, радикализм, идеологическая угроза, молодежь, идеологический вакуум, нравственное воспитание, национальная идея, государственная политика

FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF YOUTH EXTREMISM: ANALYSIS AND SOLUTIONS

Khusanboev Sardor Abdugarimovich

applicant of the Academy of the Ministry of Internal
Affairs of the Republic of Uzbekistan

Annotation:

This article analyzes the main social, political, and spiritual factors contributing to the spread of extremist ideas among youth. The author evaluates the role of national ideology, moral-educational upbringing, and state policy in combating extremism and radicalism. Special attention is given to ideological threats, the impact of ideological vacuum, and external influences on young people's worldview.

Keywords: extremism, radicalism, ideological threat, youth, ideological vacuum, moral education, national idea, state policy

Mustaqil O'zbekistonda milliy-ma'naviy tiklanish, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va milliy qadriyatlarni qayta jonlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, yosh avlodning ongi va dunyoqarashini yuksak ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida shakllantirish, ularning qalbida Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat, odob-ahloq va yuksak insonparvarlik tuyg'ularini qaror toptirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Yoshlar – jamiyatning eng faol, ilg'or va istiqbolli qatlami sifatida, ularni har tomonlama yetuk shaxslar qilib tarbiyalash, bilim va kasb-hunarga ega bo'lishi, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida kamol topishi uchun zarur sharoitlar yaratishga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda ta'lim muassasalari, jumladan, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kollejlari,



oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy muhitni mustahkamlash, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga alohida o'rin berilmoqda.

Bugungi kunda yoshlarimiz dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirgan, halol va jonkuyar, tashabbuskor va mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalanmog'i lozim. Ular murakkab va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan, jamiyatning huquqiy, ma'naviy va intellektual taraqqiyotida faol ishtirok etadigan fuqarolar bo'lib yetishishlari zarur. Shu maqsadda qabul qilinayotgan davlat dasturlari, targ'ibot-ta'lim jarayonlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va turli ijtimoiy loyihalar orqali yoshlar orasida ma'naviy qadriyatlarimiz, madaniyatimiz va tariximizga nisbatan hurmatni oshirishga, ularni ekstremizm, radikalizm, axloqiy inqirozlar kabi salbiy illatlardan asrashga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, yurtimizda ekstremizm va terrorizmni oldini olish borasida doimiy ravishda islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lib, shulardan misol sifatida keltirib o'tadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvaridagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasining “Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish” deb nomlangan VI bobida 82-maqsadi “Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish” deb nomlangan bo'lib, alohida yo'nalishlar ko'rsatib o'tilgan [1].

Har bir jamiyat va davlat uchun ekstremizmning kelib chiqishi bir qator subyektiv va obyektiv sabablardan kelib chiqqan holda turlicha bo'lishi mumkin. Biroq yoshlar ekstremizmining paydo bo'lishi va tarqalishining har qanday jamiyat va davlatga qo'llash mumkin bo'lgan ma'lum shartlari mavjud.

Masalan, D.Olshanskiy ekstremizmning zamonaviy sharoitlarda paydo bo'lishi va yoyilishining quyidagi asosiy omillarini ajratadi: ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, aholining katta qismi hayot darajasining birdan tushib ketishi, siyosiy institutlar va hokimiyat tizimining o'zgarishi, ularning jamiyat rivojlanishida yuzaga kelgan muammolarni hal qilishga qodir emasligi, siyosiy rejimning totalitar xarakterda bo'lishi, hukumat tomonidan muxolifatga ta'sir o'tkazilishi, yangicha fikrlashning



ta'qib qilinishi, milliy istibdod, alohida guruhlar o'z muammolarini hal qilishni tezlatishga urinishi, rahbarlarning jizzakiligi va boshqalar deya ta'kidlab o'tgan[2]. Y.T. Xolikov mafkuraviy tahdid – bu, ijtimoiy-siyosiy harakat, oqim yoki siyosiy kuch o'z manfaatini ifodalovchi mafkurasini qo'rqitib, zo'rlik yo'li bilan boshqalarga tiqishtirish. Mafkuraviy tahdid jamiyat, davlat yoki xalq, millat yoki elat taqdiriga xavf solib turgan, fojiali oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan mafkuraviy xavf-xatarlar majmuasi deb fikr bildirgan. [3]. Y.T. Xolikovning ushbu fikri mafkuraviy tahdidning asl mohiyatini teran va aniq ifodalaydi. Uning ta'rifi mafkuraviy bosim va zo'ravonlik orqali g'oya singdirishning jamiyat uchun qanday xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ochib beradi. Bu qarash mafkuraviy xavflarga qarshi kompleks yondashuv zarurligini asoslab beradi.

S.S.Saidjalolovning fikricha radikalizm, ekstremizm va terrorizm tushunchalari bejiz lotin tilidan kirib kelmagan. Sababi, g'arb tafakkurida hayotdagi barcha qiyinchiliklar sababi sifatida tashqi omil ko'rsatiladi. Aybni inson o'zidan emas, tashqaridan izlaydi. Shuning uchun ham Jordano Bruno, Nikolay Kopernik kabi mutafakkirlar inkvizitsiya azobiga uchraganlar. Jamiyatdagi barcha qiyinchiliklarni kimnidir zimmasiga yuklash va buning uchun aybdorni izlash, uni topish va jazolashga intilish mazkur dunyoqarashning natijasi, hosilasidir. Radikal va ekstremistik guruhlarining e'tiqodi, aqidasi, dunyoqarashidagi eng katta xato, adashish va yanglishish ham shunda [4].

S.S. Saidjalolovning mazkur fikri radikalizm va ekstremizmning ildizlarini faqat diniy yoki siyosiy emas, balki ma'naviy-falsafiy dunyoqarashlar bilan bog'lab tahlil qiladi. Uning nuqtai nazaricha, aybni tashqi omillarda izlash — inson mas'uliyatidan qochishning bir ko'rinishi bo'lib, bu radikal qarashlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Bu fikr jamiyatdagi muammolarni hal etishda shaxsiy tahlil va mas'uliyat hissi muhim ekanini ta'kidlab, radikal g'oyalarga qarshi ma'naviy immunitet shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Mazmunan kuchli va mantiqan asoslangan mulohazadir.

Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi omillar majmui ham u yoki bu ekstremistik aktning namoyon bo'lishini izohlab berishga ojiz, chunki muayyan davlat va jamiyatdagi ekstremizm alohida holatlarining har birida o'ziga xos omillar maydonga chiqadi.



Lekin shunga qaramay, yuqoridagi omillar tahlili bizga bu hodisaning bugungi kunda paydo bo'lish sabablari haqida umumiy taassurot beradi.

Ekstremizmning paydo bo'lishi va mavjudligini tushuntirib beruvchi yuqorida keltirilgan asosiy sabablarni umumlashtirgan holda ekstremizm siyosiy beqarorlik, davlat institutlarining zaifligi, shuningdek iqtisodiy inqiroz vaqtlarida ayniqsa faol bo'lishi haqidagi xulosaga kelish mumkin. Faqat asosiy omillardan tashqari ba'zi tadqiqotchilar ekstremizmning paydo bo'lishi va yoyilishiga zimdan ta'sir etuvchi qo'shimcha omillar guruhini ham ajratadilar. Bu guruhga, masalan «ekstremizm nishonalariga qarshi kurashning xalqaro yoki davlat doirasidagi tizimining samarasizligi; aholining, alohida guruhlarning siyosiy va huquqiy madaniyat darajasi pastligi; davlatlararo munosobatlarning yomonlashuvi; ijtimoiy tazyiqning ortishi va boshqalar» kiradi.

Ekstremizm kelib chiqishining tahlili bu hodisaning paydo bo'lishiga eng oddiy manfaatlar to'qnashuvi, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, etnik, diniy xarakterdagi qarama-qarshiliklar asos bo'lgan, degan oddiy xulosaga olib keladi.

Mutaxassislar terrorizm va ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar ichida mafkuraviy bo'shliqning ta'siri va qadriyatlar mo'ljallaridagi beqarorlikda namoyon bo'lgan nomutanosiblikni alohida ajratib ko'rsatadilar.

Mafkuraviy bo'shliq ko'pincha kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy muhitni noto'g'ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga bo'ysundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog'lom g'oyalar bilan to'ldirilishiga zamin yaratadi.

Bu texnologiya yaxshi shakllanmagan ma'naviyat, bo'sh iroda va nosog'lom intilishlar muhitidagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham, O'zbekiston terrorizmga qarshi kurashda, uning paydo bo'lishi va rivojlanishini bartaraf etish ishlarida g'oyaviy tarbiya, xususan, mamlakat yoshlarida yuksak ma'naviyatni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor bermoqda [5].

Zero, bunday yondashuvda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, milliy o'zlikni tiklash va mustaqillikni mazmunan boyitishga asoslangan milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat va ma'rifat, to'g'ri shakllantirilgan ong ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim tizimi sifatida yuzaga chiqadi [5].



Yoshlar orasida ekstremistik ko'rinishlarning paydo bo'lish sabablari sifatida quyidagi muhim omillarni ko'rsatish mumkin:

Birinchidan, ekstremizm asosan chetlashgan (marginal) muhitda shakllanib, u doimo yoshlarning noaniq ijtimoiy mavqei va voqealarga nisbatan barqaror bo'lmagan qarashlari, ijtimoiy jihatdan yo'nalishini yo'qotgan fuqarolar qatlami, ularning yetarli bilimga ega emasligi, jamiyatning inqirozli holati, jamoatchilik nazoratining zaif institutlari hamda samarasiz huquqiy tizim tufayli kuchayib boradi.

Ikkinchidan, ekstremizm ko'pincha qonunga itoatkorlikka undovchi amal qiluvchi me'yorlar, ko'rsatmalar va davlat institutlari bilan kelishuv mavjud bo'lmagan tizimlar va vaziyatlarda namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, ekstremizm ko'pincha o'zaro hurmat qilish darajasi past bo'lgan jamiyat va guruhlarda yoki shaxs huquqlarini mensimaydigan muhitlarda namoyon bo'ladi. Bu holat asosan zaif rivojlangan jamiyatlarga xos, ammo farovon hayot va demokratik boshqaruvga ega mamlakatlar ham undan xoli emas. Buning asosiy sababi ekstremistik ko'rinishlarning xilma-xilligi va ekstremistik yo'nalishdagi tashkilotlarning turli-xil tarkibining mavjudligi bo'lib, ular mamlakatdagi ijtimoiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan bo'ladi.

To'rtinchidan, bu hodisa shunchaki "madaniy saviyasi past" deb ataladigan jamiyatlarga emas, balki ko'proq parchalangan, buzilgan va yaxlitligini yo'qotgan madaniyatga ega bo'lgan jamoalarga xosdir.

Beshinchidan, ekstremizm zo'ravonlik mafkurasini o'zlashtirgan va axloqiy buzuqlikni targ'ib qiluvchi jamiyat va guruhlarga mos keladi, ayniqsa ularning maqsadlariga erishish yo'lida.

Oltinchidan, odamlarning o'zlari ekstremistik faoliyatga moyil bo'lib, ekstremizmning kelib chiqish sabablari insonning o'zida, uning oila a'zolari va qarindoshlari bilan munosabatlarida yotadi. Chuqurroq tahlil qilinganda esa, bu sabablar ekstremistning ichki dunyosi va uni o'rab turgan jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Yettinchidan, ekstremistik harakatlar jamiyatga majburan singdiriladi.

Demak, yoshlar orasida ekstremistik ko'rinishlarning paydo bo'lishi — bu jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va psixologik muammolarning bir-biriga bog'liq holda namoyon bo'lishidir deb hisoblaymiz.



Yoshlarni radikal va ekstremistik g'oyalardan himoya qilishdagi eng muhim omillar:

- mustaqil, tanqidiy, tahliliy fikrlashni kuchaytirish,
- dunyo adolatli boshqaruv tizimidan iborat ekanini;
- har bir inson niyatining pokligi, harakatining faolligi, axloqining go'zalligiga qarab natijaga erisha olishiga qat'iy ishonchni shakllantirishdan iborat.

Mustaqil fikrlash – turli yot g'oyalarga aldanib qolmaslikka, tahliliy fikrlar – har qanday murakkab vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilishga, tanqidiy fikrlash – o'zgalarni ayblash emas, balki o'z xatolarini ko'ra olish va ularni o'z vaqtida bartaraf etishga undaydi.

Radikalizm va ekstremizm profilaktikasida – o'ta muhim jihat bu ishonch masalasi. Millat, xalq, jamiyat, davlat va qolaversa, butun dunyo adolat mezonini ostida ekaniga, sodda ifoda etganda, hayot to'liq adolat boshqaruviga qurilganiga qat'iy ishonch. Bu ishonch: - halol mehnat qilgan inson albatta ko'zlagan natijaga erishishini; - har bir qiyinchilik ortida bir emas ikki yengillik borligini; - dili puku tili puku qilayotgan ishlari pok kimsaga hech qanday xavf-xatar yo'qligini ifodalaydi [5].

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra, ekstremizm, asosan, ijtimoiy adolatsizlik, ta'lim va huquqiy tizimning samarasizligi, madaniy parchalanish, ma'naviy qadriyatlarning inqirozi, shaxsiy muammolar va yoshlarning o'zini jamiyatda orttiqcha his etishi natijasida yuzaga keladi. Bu holatda yoshlar radikal g'oyalarni "adolat" va "ma'no" manbai deb qabul qilishga moyil bo'ladilar. Shu bois, ekstremizmga qarshi kurashda faqatgina jazo choralari emas, balki mustahkam ma'naviy-ma'rifiy asoslar, ijtimoiy barqarorlik va yoshlarni qo'llab-quvvatlovchi mustahkam tizim zarur hisoblanadi.

Bu fikrlar ekstremizmni faqat tashqi yoki diniy omillar bilan emas, balki keng ijtimoiy-psixologik kontekstda tushunish kerakligini ko'rsatadi. Yoshlarni radikal yo'ldan saqlash uchun jamiyatda tenglik, adolat, ta'lim va sog'lom madaniy muhitni ta'minlash muhim. Profilaktika, ma'rifat va sog'lom muammolar yechimi ekstremizmga qarshi samarali quroldir.

Bugungi kunda diniy ekstremizm o'z-o'zidan paydo bo'ladigan hodisa emas, balki uning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan bir qator omillar ham mavjud. Jumladan,

1. Mustamlaka va totalitar tuzumlar davrida hukmronlik qilgan ilmiy ateizm siyosati oqibatida odamlarning ma'naviy ildizlarini yo'qotishi, shuningdek, ma'naviyat va



ma'rifat o'choqlarini yetarlicha bilmasligi jamiyatda fundamentalizmning shakllanishiga turtki bo'ldi.

2. Bu mamlakatlardagi (ba'zan hatto arab davlatlaridagi) ichki muxolif kuchlarning mag'lubiyati diniy mutaassiblikning paydo bo'lishiga olib keldi.

3. Ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlatlarda modernizatsiya va xususiylashtirish jarayonida sezilarli yutuqlarga erishgan, demokratik tizim va bozor iqtisodiyoti uchun o'z rivojlanish dasturlarini tanlagan ayrim G'arb mamlakatlarining tajribasini o'rganish va undan foydalanish.

4. Insonning muhim huquq va erkinliklarini cheklovchi, erkin faoliyatga to'sqinlik qiluvchi qat'iy qonunchilik fuqarolarning qonunni chetlab o'tish harakatlarini kuchaytiradi va oqibatda kontrabandaga olib keladi. Keyinchalik, shaxs kontrabandaning boshqa turlari (giyohvand moddalar, qurol-yarog' va boshqalar) bilan shug'ullanuvchi guruhlariga jalb etiladi. Bu zamonaviy terrorizm va ekstremizmni moliyalashtirishning muhim manbai hisoblanadi.

5. Xalqaro terrorizm, siyosat, iqtisodiyot va xavfsizlikka tahdid globallashuvning tez sur'atlarda rivojlanishi oqibatida kelib chiqqan etnik-konfessional ziddiyatlar bilan ham chambarchas bog'liq. Hozirgi kunda nizoli hududlar (hal etilmagan Yaqin Sharq muammolari, chegara masalalari: Hindiston-Pokiston, Isroil-Falastin va hokazo) xalqaro terrorizm va diniy ekstremizmning faol markazlari hisoblanadi.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, diniy ekstremizmning tarqalishiga olib kelayotgan ichki omillar — bu jamiyatning tarixiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkabligi bilan chambarchas bog'liq. Mustamlaka va totalitar tuzumlar davridagi ilmiy ateizm siyosatining ta'siri, din haqidagi yetarli bilimsizlik, diniy muassasalarda noto'g'ri ta'lim, shaxsning huquq va erkinliklari cheklangani, korrupsiya, adolatsizlik, demografik bosim, qonuniy faoliyatga bo'lgan to'siqlar va mafkuraviy bo'shliq kabi omillar ekstremistik g'oyalarning keng tarqalishi uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Ismailov T.K.* Ekstremistik faoliyatni oldini olish va huquqiy baho berish asoslari .Xalqaro konferensiya materiallari.Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities.2024. B-152



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd July, 2025

2. *Muxitdinov D.S.* Ekstremizm va uni o'rganishga bo'lgan yondashuvlarning tahlili . CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS

3. *Xolikov Y.T.* Mafkuraviy tahdid tushunchasiga oid qarashlari // Jamiyat va boshqaruv, 2021. — №2. — B. 45–49.

4. *Qodirov M.X.* Terrorizm va ekstremizmning kelib chiqishi va unga qarshi kurashishning zamonaviy holati. Mejdunarodnyy nauchnyy jurnal «Nauchnyy Fokus» No 15 (100), chast1 2024. B-204.
<https://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/17215/12650>

5. *Saidjalolov S.S.* Yosh avlod ongini radikalizm tahdididan himoya qilish omillari. Eurasian journal of academic research innovative academy research support center. volume 4, Issue 12, Part 2 December 2024 ISSN 2181-2020 Page 80.
<https://cyberleninka.ru/article/n/yosh-avlod-ongini-radikalizm-ta-dididan-imoya-ilish-omillari/viewer>